

UZBEKISTAN

LANGUAGE & CULTURE

O‘ZBEKISTON

TIL VA MADANIYAT

**Tarjimashunoslik
va qiyosiy
adabiyotshunoslik**

ISSN 2181-922X

2022 Vol. 3 (2)

www.uzlctscs.tsuull.uz

ISSN 2181-922X

O‘ZBEKISTON

TIL VA MADANIYAT

TARJIMASHUNOSLIK VA
QIYOSIY ADABIYOTSHUNOSLIK

UZBEKISTAN

LANGUAGE AND CULTURE

TRANSLATION STUDIES AND
COMPARATIVE LITERARY
STADIES

2022 Vol. 3 (2)

www.tsuull.uz
www.uzlctscls.tsuull.uz

Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o‘zbek tili va adabiyoti universiteti

Bosh muharrir: Shuhrat Sirojiddinov
Bosh muharrir o‘rinbosarlari: Uzoq Jo‘raqulov
Ziyoda Teshaboyeva
Mas‘ul kotib: Mahmadiyor Asadov

Tahrir hay‘ati

Bahodir Xoliqov, Odiljon Safarov, Nargiza Rashidova, Murtazo Saydumarov, Aidaxon Bumatova, Komiljon Hamroyev, Nigora Sulaymonova, Oydin Tuychiyeva.

Jurnal haqida ma‘lumot

“Tarjimashunoslik va qiyosiy adabiyotshunoslik” seriyasi – qiyosiy adabiyotshunoslik va tarjimashunoslik sohalarini qamrab olgan O‘zbekiston: til va madaniyat akademik jurnalining ilovasi hisoblanadi.

Jurnal bir yilda ikki marta chop etiladi.

Jurnalning maqsadi tarjimashunoslik va qiyosiy adabiyotshunoslikka oid dolzarb mavzulardagi bahs-munozaraga undaydigan, yangi, innovatsion g‘oyalarga boy, o‘z konsepsiyasiga ega bo‘lgan tadqiqotlarni nashr etishdir.

Ingliz, rus va o‘zbek tillaridagi, shuningdek, boshqa turkiy tillarda yozilgan maqolalar qabul qilinadi.

Jurnalda ilmiy maqolalar, kitoblarga yozilgan taqrizlar, adabiyotlar sharhi, konferensiyalar hisobotlari va tadqiqot loyihalari natijalari ham e‘lon qilinadi.

Mualliflar fikri tahririyat nuqtayi nazaridan farq qilishi mumkin.

Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o‘zbek tili va adabiyoti universiteti.
O‘zbekiston, Toshkent, Yakkasaroy tumani, Yusuf Xos Hojib ko‘chasi, 103.

Email: uzlctscls.@navoiy-uni.uz
Website: www.uzlctscls.tsuull.uz

Alisher Navo‘i Tashkent State University of the Uzbek Language and Literature

Editor-in-Chief:	Shuhrat Sirojiddinov
Deputy editor-in chief:	Uzok Djurakulov Ziyoda Teshaboyeva
Executive secretary:	Mahmadiyor Asadov

Editorial Board

Bahodir Kholikov, Odiljon Safarov, Nargiza Rashidova, Murtazo Saydumarov, Aidakhon Bumatova, Komiljon Hamroev, Nigora Sulaymonova, Oydin Tuychieva.

About the Journal

Uzbekistan: Language and Culture. Translation Studies and Comparative Literary Studies series is an academic journal that publishes works in the field of comparative literary and translation studies.

The journal is published twice a year.

The purpose of the journal is to publish the results of the latest research that are rich in new, innovative ideas and has its own concept, which stimulates debate on topical issues in these areas.

The language of articles can be English, Russian and Uzbek. Other Turkic languages are also welcome. We do not publish economic analyses or political articles.

In addition to research articles, the journal publishes thesis and literary work reviews, conference reports and research project results.

The authors' ideas may differ from those of the editors'.

Alisher Navo‘i Tashkent State University of the Uzbek Language and Literature.

103, Yusuf Khos Hojib, Yakkasaray, Tashkent, Uzbekistan.

Email: uzlangcult@gmail.com

Website: www.trans.compliterary.tsuull.uz

MUNDARIJA

JAHON ADABIYOTI VA TIPOLOGIK TALQIN

Maxliyo Umarova Sharq va G'arb badiyatida muallif va qahramon masalasi.....	9
Fahriddin Yarmanov Bomarshening hayot va ijod yo'li	16
Dilnavoz Boyzoqova Alisher Navoiyning "Tarixi anbiyo va hukamo" asarida Yusuf alayhissalom obrazi talqini	23
Dilnavoz Najimova Jahon adabiyotida antalogiya tuzish tamoyillari	29

EPIK JANRLARNI QIYOSIY O'RGANISH

Elyor Murtazayev Nazar Eshonqul "Urush odamlari" asarida urush fojiasining badiiy ifodasi.....	42
Sardor Sherqulov O'tkir Hoshimov ijodining qiyosiy adabiyotshunoslikda o'rganilishi.....	47

SHARQ VA G'ARB LIRIKASI MUAMMOLARI

Sayohat Arziqulova Zulfiya Mo'minova she'riyatida milliy ruhiyatning aks etishi.....	54
--	----

TARJIMA VA TARJIMASHUNOSLIK

Shafiqa Yorqin O'zbek tarjimachiligi haqida	66
Ziyodaxon Teshaboyeva, Yulduz Zayniyeva "Boburnoma" da "payt" ma'noli izofalar va ularning inglizcha tarjimalari qiyosiy tahlili.....	77
Ra'noxon Xudjayeva Frazeologik omonimlarning inglizcha-o'zbekcha tarjimasini talqini	88
Nigora Sulaymonova Mahmud Zamaxshariyning «Asosu-l-balog'a» asarida she'riy parchalarning illyustrativ manba sifatida berilishi	108
Zebiniso Bekmuradova Xiazm konstruksiyasi asosida qurilgan fransuz folklor matnlarining o'zbekcha tarjimalari	116
Chorshami Hayitov Realialar tarjimasini muammolari.....	122

Ilhom Xolmo‘minov	
Folklor asarlar tarjimasiga doir mulohazalar	129
Азиза Шералиева	
Перевод безэквивалентной лексики с английского на узбекский язык	134

CONTENT

TYOLOGICAL ANALYSES AND THE WORLD LITERATURE

Makhliyo Umarova	
The issue of author and hero in Eastern and Western Literary work.....	9
Fahriddin Yarmanov	
The way of life and creativity of Beaumarchais	16
Dilnavoz Boyzoqova	
The interpretation of the image of Yusuf alayhissalam in “The history of Prophets and the Rulers” by Alisher Navoi.....	23
Dilnavoz Najimova	
Principles of Compiling an anthology in World Literature	29

A COMPARATIVE STUDY OF EPIC GENRES

Elyor Murtazaev	
Nazar Eshankul is an artistic expression of the tragedy of war in his book "People of War"	42
Sardor Sherkulov	
The study of the works of Utkir Hoshimov in comparative literature	47

THE ISSUES OF POETRY OF WESTERN AND EASTERN COUNTRIES

Sayohat Arzikulova	
Reflection of the national spirit in Zulfiya Muminova's poetry	54

TRANSLATION AND TRANSLATOLOGY

Shafiqa Yorqin	
About Uzbek Translation Study	66
Ziyodaxon Teshaboeva, Yulduz Zaynieva	
A comparative analysis of izofas with the meaning of "time" and their English translations in "Baburname"	77
Ra'noxon Xudjaeva	
Translation Interpretation of English-Uzbek Phraseological homonyms	88
Nigora Sulaymonova	
Representation of Poems as an Illustrative Source in "Asosu-l-baloga" by mahmud zamahshari	108
Zebiniso Bekmuradova	
Uzbek translations of French folklore texts based on the Chiasma construction	116
Chorshami Hayitov	
Problems of translation of realities	122

Abstrakt

Omonim so'zlar tarjima san'atida o'z o'rnini egallab ulgiran, ular tajimonning "yolg'onchi do'stlari" bo'lib, bugungi kunda matnlarda omonimik so'zlarni tarjima qilishi uslubi, tarixini o'rganish nafaqat tilshunoslikda, balki tarjimashunoslik sohasida ham echimini kutayotgan masalalardan biridir. Omonim so'zlar tarjima jarayonida to'g'ri qo'llanilishi tarjimani yanada jozibadorligini oshiradi. Maqolada ingliz va o'zbek tillarida omonimik so'zlarni tarjima jarayonida muqobil tarjimaga erishishdagi strategiyalari, ularni noo'rin qulanilishi esa tarjima "sinishiga" sabab bo'lishi mumkinligi xaqida batafsil bayon qilingan.

Kalit so'zlar: *omonim so'zlar, semantik samaradorlik, tarjima jarayoni, etimologiya, muqobil tarjima, omillar, jargon, argo, varvarizm, vulgarizm.*

Kirish

Hozirgi kundagi fan va texnika, ommaviy axborotlar yuksalgan zamonaviy dunyoning rivojlanishini kuzatar ekanmiz, barcha sohalarda faoliyat yuritadigan mutaxassislarga talab hamda takliflar ortib borayotganligini guvohi bo'lamiz. Shu qatorda madaniyatlararo muloqotning keng qamrovli tus olishi tarjima sifatiga yuqori talablar qo'ymoqda. Muqobil tarjimaga erishish nafaqat mutaxassis tarjimonlar, shuningdek, turli sohalar, madaniyat, ijtimoiy qatlam vakillarini "o'ylantirib" qo'ymoqda.

Mutaxassis tarjimonlar esa hayotning barcha sohalarining kesishgan chorrahasida bo'lganidek, omonimiya hodisasini tilshunos olimlarni, til sohiblarini va mutaxassis tarjimonlarni e'tiborsiz qoldirmaydi. Chunki omonimlar semantikasini mukammal bilmagan, tarjimonlik mahoratini to'la to'kis egallamagan mutaxassis muqobil tarjimaga erisha olmaydi.

Ushbu maqolamizda tadqiqotimiz obyekti bo'lgan ingliz va o'zbek tilidagi omonimlar tarjima jarayonidagi tadqiqi hamda tahlil natijalarimiz o'z aksini topgan.

¹ Xudjayevara Ra'noxon Mutalibjonovna – filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori, dotsent. Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o'zbek tili va adabiyoti universiteti.

E-pochta: xudjayevara'noxon@navoiy-uni.uz

ORCID ID: 0000-0001-6790-4344

Iqtibos uchun: Xudjayevara, R.M. 2022. "Frazeologik omonimlarning inglizcha-o'zbekcha tarjimasini talqini". *O'zbekiston: til va madaniyat*, 3 (2): 88-107.

Tilda omonimlarning mavjudligi tasodifiy emas, balki zaruriy va qonuniydir. Hozirgi zamon tilshunosligida omonimlar absolyut universalিয়া sifatida e'tirof etiladi. Ya'ni omonimiya dunyoning barcha tillariga xos bo'lgan umumtipologik hodisa hisoblanadi, lekin har bir tilda omonimlarning miqdoriy ko'rsatkichlari turli darajada: qaysidir tilda ko'proq, qaysidir tilda kamroq. Bu bevosita tilning leksikoniga, lug'at zaxirasiga bog'liq.

Xo'sh, omonim o'zi nima?

Shu o'rinda tilshunoslik genezisiga bir nazar solamiz. Omonim so'zi yunon tilidan olingan bo'lib, "homos" – bir xil nom va "onyma" – nom so'zlaridan tarkib topgan. Turli xil narsa va hodisalarga bir xil nom berilishi, ularning bir xil yozilishi, shuningdek, turli ma'nolarni anglatishi omonimlar deyiladi. Bu hodisani o'rganuvchi soha esa leksikologiya fani deb ataladi.

Omonimiya hodisasi har qanday tilda ham salmoqli o'rin tutadi. Til boyligi faqat so'zlar, iboralar bilangina emas, so'zlarning semantik ma'nolari bilan ham o'lchanadi.

Omonimiya muammosi – bu nafaqat tilning asosiy birligi – so'zning chegaralarini o'rnatish bilan bog'liq muhim nazariy masala, balki amaliy tarjimashunoslikning ham murakkab masalalaridan biridir.

Zamonaviy o'zbek tili omonimlarga juda boy til hisoblansada, ingliz tilidagi bu holat bizning milliy tilimizga qaraganda samaradorligi yuqoridir. Tilshunos olimlarning fikriga ko'ra o'zbek tilidagi lug'atlarning 12-14 % ini omonimlar tashkil etadi. Ingliz tilida esa bu ko'rsatkich yanada yuqoridir. Turli omillar ta'sirida rivojlanayotgan ikki tilda ham omonimlar soni vaqt o'tgani sari qatorlari kengayib, ko'payib bormoqda.

Adabiyotlar tahlili va metodologiyasi

Savol tug'iladi, omonimlar tarjima jarayonida qanday rol o'ynaydi – ularni tadqiq etish qanchalar muhim? Tahlillarimiz va tadqiqotlarimizda turli adabiyotlarni tarjimaslarini qiyoslash orqali biz olimlarning fikrlaridan ancha farq qiladi.

Tilshunoslar A.A. Reformatskiy, A.N. Gvozdev omonimiyani salbiy hodisa, "tushunishga to'sqinlik qiluvchi omil", "til nuqsoni" sifatida qaraydilar [Reformatskiy, Gvozdev, 1960; 87-91]. Ular omonimlarni tilga zarar yetkazishi, noaniqlik keltirib chiqarishi va shu orqali til, so'zlarning ta'sirchanligini susaytiradi, deya ta'kidlashgan.

L.A. Bulaxovskiy, O.S. Axmanova, R.A. Budagov esa omonimiyani ayrim hollarda nutq va matnni tushunishni qiyinlashtirishini tan olsalar-da, shunga

qaramay, u tilning nuqsoni emas, deb hisoblaydilar [Bulaxovskiy, 1928, 47-60]. Biroq, tarafdorlarda ko'pchilikni tashkil etuvchi nuqtai nazar mavjudki, ularning barchasi omonimik so'zlar tarjimasida jarayonida, til o'rganishda hech qanday noqulaylik tug'dirmaydi, kabi fikrga tayanishadi. Chunki omonim so'zlar tarjima jarayonida tarjimon, o'quvchi, tinglovchi ham kontekst va matnda kelgan vaziyatga qarab mazmunini ajratib yoki tushunib olishi mumkin.

Omonimiya tilning istalgan darajalarida mavjud bo'lishi haqidagi fikr allaqachon munozaralarga sabab bo'lmay qolgan. Jumladan, I.F.Vardul omonim tushunchasini lisoniy tizimning barcha birliklari – "morfologik yarusdagi morfemadan tortib, sintaktik mazmun yoki gap shaklida kelgan shu davrgacha, sintaktik yarusdagi ma'lumotgacha" taalluqli deb hisoblaydi [Vardul, 1974; 17-18]. Ushbu nazariya borasida Yu.S. Maslov shunday yozadi: "Til nazariyasida omonimiya va omonimning leksikografik ish amaliyotiga nisbatan ancha kengroq tushunilishidan kelib chiqish samaraliroq [Maslov, 1963; 128]. Biz omonimiya deganda ikki turli belgilovchining bir xil talafuzini tushunamiz. Bu bir tomondan so'zlar, morfema yoki morfemali birliklar hamda so'z birikmalari darajasidagi tushunchaga taalluqli bo'ladi".

Omonimiya va unga o'xshash hodisalarni tasniflashga bo'lgan birinchi urinishlardan biri A.Bulaxovskiy tomonidan 1928 yili taklif etilgan tasnif hisoblanadi. Bu tasnif to'liq bo'lmasa-da, anchagina qiziqish tug'diradi. "Из жизни омонимов", ya'ni omonimlar hayotidan deb nomlangan maqolasida u quyidagi omonimlarni ajratib ko'rsatadi [Bulaxovskiy, 1928; 47]. Bundan tashqari, "omonimlar tushunchalar va hissiyotlarning yaqin yoki uzoq sohalariga tegishli ekanligini ham hisobga olish kerak"ligini ta'kidlaydi.

D.N.Shmelyov omonimiyaning kelib chiqish tushunchasini tarixiy leksikologiya sohasiga kiritadi [Shmelyov, 1990; 244]. Hozirgi vaqtda esa, aynan zamonaviy tillar uchun bir-biri bilan bog'liq ma'no va tovush shakli bir xil namoyon bo'lgan, lekin leksik-semantik jihatdan hech qanday umumiylikka ega bo'lmagan ma'noni farqlash kerak bo'lmoqda. Bu muammo nafaqat lingvistik nazariya, balki leksikografik amaliyotga ham taalluqli bo'lib qolmoqda.

V.N.Yartseva tomonidan tuzilgan lingvistik entsiklopedik lug'atda omonimlarga quyidagicha ta'rif berilgan: "omonimlar – yunoncha homo- "bir xil", onoma – "nom" ma'nolarini anglatadi, talaffuzi va yozilishiga ko'ra identik (aynan, bir xil), lekin ma'nosiga ko'ra bir-biridan farqlanadigan so'zlar" [Yartseva, 1990; 685]. An'anaviy tarzda omonimiya bir va undan ortiq til birliklarini tovush jihatdan to'g'ri kelishidir.

O.Axmanova tomonidan tuzilgan “Lingvistik terminlar lug‘ati” da ham shunga mos ta‘rif keltirilgan: “Omonimlar – bir xil talaffuz qilinuvchi so‘zlar inglizcha “homonyms”, frantsuzcha “homonymes”, nemischa “homonyme” talaffuziga, ya’ni ifoda planiga ko‘ra mos keluvchi ikki yoki undan ortiq turli xil birliklardir” [Axmanova, 1986; 488]. Omonimiya leksik birliklarning bir ko‘rinishi bo‘lib, leksemalarni shakli bir xilligiga qaramay, ular har xil tushunchalarni anglatadi.

Tarjima jarayonida muqobil tarjimaga erishish uchun tarjimon nafaqat terminologiyani, balki matnda uchragan omonimik so‘zlarning to‘liq semantikasi bilishi kerak. Shuni ta’kidlash kerakki, intensiv rivojlanayotgan tarjima sohasida faoliyat olib borayotgan mutaxassislar qardosh bo‘lmagan tillararo tarjimada, u xoh badiiy, xoh ilmiy bo‘lsin omonim so‘zlarga, ayniqsa ularning to‘g‘ri qo‘llanishiga e’tibor berishlari kerak. Omonim so‘zlarning nomuqobil tarjimasi esa bir butun asarni yoki ilmiy matnni g‘alizlikka olib kelishi mumkin.

Xorijiy tillarni o‘qitishning kompleks tizimini yaratish hamda respublikaning jahon hamjamiyatiga yanada integratsiyalashuviga alohida e’tibor qaratilishi nafaqat xorijiy tillarni o‘rganish yoki o‘qitishda, turli xil lug‘atlar tuzishda, balki tarjima adekvatligiga erishishda ham muhim ahamiyat kasb etib, bu o‘z navbatida maxsus nazariy tadqiqotlarni taqozo qiladi.

Muhokama

Asarlar tarjimasida tarjimon mahoratini so‘z tanlash ham ko‘rsatadi. Bu asosan sinonim va omonimlarni to‘g‘ri tanlashdir. Omonimlar funktsional vazifalariga ko‘ra turli badiiy, sinxron va ilmiy-texnik tarjima jarayonlarida har xil vazifalarni bajaradi. Buning uchun ularning reallashuvini aniqlash faqat badiiy matn orqali amalga oshiriladi. Ayrim tarjimonlar asl nusxadagi so‘zni tarjima tilidagi ekvivalenti bilan almashtirib qo‘yadilar. Kontekst mazmuniga e’tibor qilmagan holda uni lug‘atda uchragan dastlabki tarjimasi bilan berib qo‘ya qoladilar. Natijada, kerakli so‘z tushirib qoldirilib, uning o‘rniga omonim so‘z qo‘llaniladi. Bu holat esa tarjima adekvatligiga putur yetkazishga olib keladi.

Quyidagi omonimik qator hosil qilgan **light** so‘zini tahlilga tortsak. Masalan, **light** omonimik qatorining birinchi **light** so‘zida ushbu ma’no aks etgan. **light**₁ – *yorug‘, yorqin, yaltiroq, rangi ochiq* deb, ikkinchi qatoridagi yana bir shakli esa **light**₂ – *yengil* ma’nosida keladi.

Tarjimaning “sinishi”ni shu so‘zlar misolida J.Sviftning “Gulliverning sayohatlari” va Voynichning “So‘na” romanlarida uchratishimiz mumkin. Rus

tarjimonlari ularni har ikki asarda ham omonimlar bilan almashtirib qo‘yganlar, ya‘ni:

*“His dress was very plain and simple and fashion of it between the Asiatic and European. But he had on his head a **light** helmet of gold. Adorned with jewels and plume on the crest”. – “Imperatorning kiyimi oddiy va kamtarona, andozasi ham yevropaliklar, ham osiyoliklarnikiga o‘xshab ketadi, boshida qimmatbaho toshlar qadalgan, tukpar taqilgan **yengilgina** oltin dubulg‘a”. Ushbu misolda berilgan “svetliy, yarkiy” so‘zlari o‘rniga “lyogkiy” so‘zi qo‘llanilgan va asliyat mazmuni biroz o‘zgargan.*

Yana bir misolni tahlil qilsak, *“I will go home and fetch that riding-cloak of mine. **Rivers**. I think you will be less recognizable in it than in your light suit”. – “Uydan yo‘l plashimni olib kelib beray sizga. **Rivers**. Bu yengil kostyumdan ko‘ra, unda sizni tanish qiyinroq bo‘lar”. Berilgan misollarda o‘zbek tili materialida omonimlarning tarjimadagi muqobilligini belgilashda tilning barcha ekzistentsional (yashash) shakllari – adabiy til, sheva, professional leksika, jargon, argo, varvarizm, vul‘garizm, ekzotik leksikaga tayanilsa, maqsadga muvofiq bo‘ladi. Lekin shu kungacha yaratilgan o‘zbek tilidagi lug‘atlar asosan yozma adabiy til manbalariga asoslanib yaratilgandir. Vaholanki, adabiy til materiallari aysbergning ko‘rinib turgan qismi xolos.*

Tarjimashunoslikdagi dolzarb vazifa – lug‘atchilik tamoyillari va mezonlarini tanqidiy idrok etish va kelajakda tilning barcha yashash shakllarini e‘tiborga olgan holda mukammal lug‘atlar yaratishdir. Aslida o‘zbek tilida ham omonimlarning semantik samaradorligi yuqori. Lekin bu jihatlar lug‘atda qayd etilmagan. Bunda jonli nutqda ishlatiladigan ma‘nolar hisobga olinishi tilning barcha yashash shakllarida nazarda tutiladi.

Zamon bilan hamnafas tarjima san‘atining barcha qirralari inson yordamida amalga oshiriladigan tarjima jarayonini san‘at darajasiga ko‘tardi. Aynan shu joyda omonimlarning lug‘at maqolalarida keltirilgan definitsiyalaridan kelib chiqqan holda ongli ravishda tarjima jarayoni muvaffaqiyatli yuzaga chiqishini ta‘minlaydi. Boisi tarjimon o‘z lingvistik intuitsiyasi va kompetentsiyasi hamda leksikografik, terminologik bazasiga tayangan holda omonimiya muammosini hal etadi. Bu jarayonda tarjimonga ma‘lum muammo keltirib chiqaruvchi aspekt asosan barcha tillarga universal bo‘lgan omonimlarga aloqador bo‘lib, u, albatta, omonimlarning to‘liq semantik ro‘yxatiga ehtiyoj sezadi. Vaholanki, yaratilgan lug‘atlarda ular aralash holda va to‘liq bo‘lmagan tarzda qayd etilgan. Bu vaziyatlar esa tarjimashunoslik, tilshunoslik, adabiyotshunoslik sohasidagi barcha olimlar, tadqiqotchilar uchun murakkablik tug‘diradi.

Demak, omonimlar lug'ati tarjimonning ham ish stolidagi muhim manba bo'lib hisoblanadi. Lekin omonimiya muammosi ko'proq qiyinchilik tug'diradigan soha "avtomatik tarjima" yo'nalishidir. Chunki avtomatik tarjimaning muvaffaqiyatli amalga oshishi uchun tabiiy tildagi eng katta to'siq omonimiya bilan bog'liqdir, degan fikrni D.Siokumning ishlarida uchratish mumkin, ya'ni kompyuter bir qiymatlilik tamoyiliga asoslanib ish ko'radi, bunda bir shaklga bir ma'no yuklanishi nazarda tutiladi [Siokum, 1989; 358]. Omonimiya esa mazkur tamoyilga zid keladi, chunki unda bir shaklda bir necha ma'no ifodalanadi. Mana shu jihatdan mashina tarjimasi uchun omonimlar muammo tug'dirishi tabiiy. Mazkur muammoni hal etish yuzasidan shu kungacha turli xil avtomatik tarjima modellari yaratilgan, lekin ularning barchasi mashina tarjimasining maksimal darajada muvaffaqiyatli amalga oshishida ma'lum darajada xizmat qilmoqda. Bu jarayonda, bizningcha, omonimlarning to'liq jamlanmasini yaratish va ular asosida "omonimlarning elektron lug'ati"ni ishlab chiqish hamda uni tarjimon dasturlarning bazasiga joylash lozim. Shunda avtomatik tarjimaning sifatini bir oz yuksaltirishga erishish mumkin.

Barchamizga ma'lumki, zamonaviy tarjimonlik jarayonlarida ko'proq amaliy tarjimalarga murojaat etilmoqda. Hozirgi kunda juda ko'plab elektron lug'atlar mavjud, chunki ular hayotimizni osonlashtirishga yordam beradi. Bu kabi lug'atlar turli tillarni o'rganishda, matnlar tarjimasining to'la-to'kis chiqishida katta rol o'ynaydi.

Demak, elektron lug'atlar qanchalik zamonaviy leksikografiya talablariga javob bersa, har bir sohani qamrab oluvchi alohida-alohida omonimlarning semantik, frazeologik, terminologik elektron lug'atlari yaratilsa, tarjimon amaliy, avtomatik tarjima jarayonlarida muammolardan holi bo'ladi.

Tahlil va tadqiqotlarimizga asoslangan holda omonimiya hodisasi hech bir tilga zarar yetkazmaydi, balkim o'sha tilni tarjima muqobilligini, muloqot jarayonlarini murakkablashtiradi.

Shunday qilib qardosh bo'lmagan o'zbek va ingliz tillarida tarjima jarayonida omonimik so'zlarni tadqiqi, qiyoslanishi tarjimashunoslikdagi muhim masalalardan hisoblanadi.

Frazeologik omonimlarning tarjimada aks etish samaradorligi.

Frazeologiyaning tarjima sohasida omonimiya munosabatisiz chuqur o'rganib bo'lmaydi. Omonimlarning frazeologiya sohasida o'rganilishi taniqli olim V.V.Vinogradov nomi bilan bog'liq [Vinogradov, 1997; 310]. Frazeologik

omonimiyanning bir qator savollarini, muammolarini, ularning tahlil etilishini A.V.Kunin, V.L.Arxangelskiy, L.I.Royzenzon kabi olimlarning tadqiqotlarida, o'zbek tilshunosligida esa frazeologiyani tadqiqot predmeti sifatida A.E.Mamatovning ishlarida ko'rish mumkin [Mamatov, 1999]. Ammo biz tadqiqotimiz davomida shunga amin bo'ldikki, omonimiya hodisasining hali ochilmagan, bizga ma'lum bo'lmagan va munozaralarga sabab bo'layotgan juda ko'p masalalari ochiq qolmoqda. Masalan, omonimik frazeologizmlarning paydo bo'lishi, tarjimada berilishi, ularning badiiy tarjimaning uyg'unligini oshirishda, muqobil va jozibador ma'nolarini ko'rsatib berish kabi masalalarni olishimiz mumkin.

Biz ham tadqiqot ob'ektimiz bo'lgan ingliz va o'zbek tillaridagi leksik omonimlarning frazeologiya sohasidagi tarjima qilish xususiyatlarini tahlil qilishga urindik.

Frazeologiya sohasi zamonaviy lingvistikada juda tez rivojlanib borayotganiga qaramay, bu sohada hamfikir xulosaga kelishgani yo'q. Masalan, "frazeologiya" termini haqida aniq bir fikrning yo'qligi omonimiya, sinonimiya va polisemiyalarning frazeologiyada tahlil etilishini chalkashtirib yubormoqda, chunki "frazeologiya" termini lingvistikada o'zining xech bir nomiga ega emas, qatorida uni tushunish uchun hech bir xususiyatlari haligacha aniqlanmagan. Albatta, bu muammolar frazeologiya sohasi aniq chegaralarining yo'qligini ko'rsatib turibdi.

Tahlil va statistika

Frazeologik omonimlarning tarjimada berilishini tadqiq etishda quyidagi jihatlarni asosiy mezon sifatida belgiladik:

- Statistik mezon – qiyoslanayotgan tillardagi frazeologik omonimlarning tarjima jarayonida qo'llanilish darajasi aniq miqdoriy ko'rsatkichlarda berildi;
- Taksonomik-statistik mezon – birinchi bosqichda olingan natijalar umumlashtirib, ularning miqdoriy tavsifi va tasnifi berildi. Bu jarayon birinchi bosqichning mantiqiy davomi bo'lib, turli xil asarlar, kontekslardan olingan ma'lumotlar, miqdoriy ko'rsatkichlar samaradorlik darajasiga ko'ra tasniflandi;
- Paradigmatik-statistik mezon – bunga ko'ra tarjima jarayonida frazeologizmlarning ichki bo'linishi va ularning qaysi turlarini hosil qilishda (frazeologizatsiya va frazeologik derivatsiya jarayonida) frazeologik omonimlarning tarjima jarayonida ishtiroki, muhim komponent sifatida xizmat qilish aniq miqdoriy ko'rsatkichlarda beriladi.

Birinchi va ikkinchi mezonda frazeologizmlar hosil qilinishida omonimlarning ishtiroki umumiy aspektda ko'rib chiqilsa, uchinchi mezonda tarjimada frazeologik birliklarning ichki guruhlarini doirasida samaradorlikka ko'ra tahlil amalga oshiriladi.

Frazeologik birliklarni (frazeologik birlik) tahlil etishda quyidagi parametrlarga tayandik:

1. Ingliz tilidagi genetik bog'lanmagan leksik omonimlardan yasalgan frazeologik birliklarning 13 tomli "The Oxford dictionary of the English language" va boshqa lug'atlarda berilishi, o'zbek tili uchun Sh.Rahmatullaevning "Omonimlarning izohli lug'ati"da frazeologik birliklarning berilishi;


2. Frazeologik birliklarning badiiy adabiyotlarda ko'chma ma'noda kelishi, ya'ni metaforalashib yoki metonimiyalashib ketishi;

3. Yuqoridagi parametrlarga bo'ysunmagan frazeologik birliklar ham tahlilga tortildi, chunki so'z qancha ko'p yashasa, uning faolligi shuncha ko'p oshib boradi;

4. Omonimlarning chastotasiga qarab frazeologik birliklarni belgilash va kiritish.

Ingliz tilidagi omonimlarni sof statistik mezon asosida tahlil qilishga urindik va to'rt ichki guruhga bo'lib o'rganishni lozim topdik. Bular quyidagilar:

Diagramma №1.
Frazeologik birlik yasashda ingliz tilidagi omonimik suzlar samaradorligi



Ingliz tilida asarlar tarjimasida omonimlarning frazeologik samaradorligining eng yuqori chegarasi "OE/OF/CELT" etimologik guruhiga mansub **ball** omonimida kuzatildi.

Jadval№1
Ingliz tilidagi *ball* omonimik qatorining frazeologik birlik yasashda to'liq misollari

Omonimik qator	Ingliz tilida	O'zbek tilida
Ball₁	<i>ball and chain</i>	ola xurjun, ro'zg'or oilaviy.
	<i>ball of fortune</i>	taqdir o'yinlari, taqdir hazillari.
	<i>the (whole) ball of wax</i>	bir butunligicha, tamomila, to'liq, yaxlitligicha.
	<i>behind the eight (-) ball</i>	asli kelib chiqishi bilyard o'yini bilan bog'liq, juda qiyin, murakkab vaziyatda bo'lmoq, 8 - shar luzaga tushsa, o'yin nihoyasiga yetadi.
	<i>foul ball</i>	ishi yurishmagan odam, omadsiz.
	<i>as round as a ball</i>	shardek yumaloq, semiz odam.
	<i>that's the way the ball bounces</i>	shunaqa gaplar.
	<i>the three golden balls</i>	sudxo'rning do'koni.
	<i>the ball is at smb's feet</i>	vaziyat kimningdir qo'lida bo'lmoq.
	<i>the ball is in your court</i>	sizning navbatingiz, bu safar sizning navbatingiz.
	<i>be on the ball</i>	abjirlik bilan, uddaburonlik bilan harakat qilmoq, epcillik qilmoq, o'z ishining ustasi bo'lmoq, vazifani ko'ngildagidek, a'lo darajada bajarmoq.
	<i>bounce like a ball</i>	serg'ayrat, serharakat bo'lmoq, zir yugurmoq, o'zini o'tdan cho'qqa urmoq.
	<i>carry the ball</i>	bosh rolda o'ynamoq, mas'uliyatni o'z bo'yniga olmoq, ishni boshqalarga qoldirmasdan bir o'zi bajarmoq, mushkul (chigal) muammoni hal qilmoq.
	<i>catch the ball before the bound</i>	qulay vaziyatni kutmasdan shoshib harakatlanmoq, orqa - ketiga qaramasdan shosha-pisha harakatlanmoq, faqat olg'a intilmoq.
	<i>get on the ball</i>	oyog'ini qo'lga olib, tez harakatlantirmoq, shoshiltirmoq.
	<i>have a ball</i>	vaqtichog'lik qilmoq, rohatlanmoq, ko'ngil ochmoq, vaqtini chog' o'tkazmoq.
	<i>have a lot on the ball</i>	o'ta iste'dodli, qobiliyatli, layoqatli bo'lmoq,
	<i>have the ball at one's feet</i>	

	<i>hit the ball</i>	ishning havosini (hadisani) olmoq ustunlikni o'z qo'lga olmoq.
	<i>keep the ball rolling</i>	tinmay, ter to'kib ishlamoq, o'lib-tirilib ishlamoq, gizillatib, uchirib bormoq, ketmoq.
	<i>open the ball</i>	gapni gapga qo'shmoq.
	<i>play ball</i>	tashabbus ko'rsatmoq, astoydil bo'lmoq.
	<i>set the ball rolling</i>	birgalikda, qo'lni qo'lga berib harakat qilmoq, hamkorlik qilmoq.
	<i>shoot the ball into one's own goal</i>	gap boshlamoq, so'z ochmoq.
	<i>take up the ball a ball of Fire</i>	o'ziga ziyon keltirmoq, o'ziga shikast yetkazmoq, zarar yetkazmoq. 1. gapga aralashmoq 2. haddan ziyod g'ayratli odam
Ball₂	<i>Toopen (toleadup) the ball</i>	ball kechasini ochib berish.

Ushbu omonimik qator jami 30 ta frazeologik birlikga ega. Mazkur birliklarning 8 tasi nominativ frazeologik birlik. 17 tasi nominativ-kommunikativ frazeologik birliklardir. **ball₂** omonimi esa o'zidan faqat 1 ta frazeologik birlik yasagan. **ball₃** omonimida esa umuman frazeologik samaradorlik kuzatilmaydi. Shuning uchun bu omonim nol samaradorlik qatoridan joy oldi. Demak, **ball₂** va **ball₃** omonimlari frazeologik samaradorlik jihatidan **ball₁** omonimiga qaraganda past darajada.

Yuqori samaradorlikka ega bo'lgan omonimlar sirasiga yana "OE/OF" etimologik guruhiga tegishli **case₁** omonimi 21 ta, "GER/OE" etimologik guruhiga taalluqli **top₁** 20 ta frazeologik birliklar yasagan omonimlarni kiritishimiz mumkin. **Case₂** omonimi 2 ta frazeologik birlikga ega bo'lganligi sababli, frazeologik samaradorligi quyi bo'lgan omonimlar sirasiga, **top₂** omonimi ham bitta frazeologik birlik yasaganligi sababli xuddi shu qatorga, **top₃** omonimi tarkibida esa umuman frazeologik birlik yasalishi kuzatilmagani uchun shunga ko'ra bu omonimni frazeologik samaradorligi nol^Ь darajadagi omonimlar sirasiga kiritdik.

Frazeologik samaradorligi o'rta darajada bo'lgan, ya'ni genetik bog'lanmagan leksik omonimlarga "OE/DUTCH/OF" etimologik guruhiga tegishli rock omonimik katorining **rock₁** omonimini kiritsak bo'ladi. Bu omonim o'zidan 12 ta, "OE/DUTCH" etimologik guruhiga oid bull omonimik qatorining **bull₁** omonimi frazeologik birlik yasaydi. Shu etimologik guruhga

mansub o'zidan 11 ta frazeologik birlik yasagan **school**₁ omonimini esa frazeologik samaradorligi quyi, ya'ni 11 tadan 1 tagacha frazeologik birliklar yasagan omonimlar sirasiga kiritdik.

Mazkur omonimlardan birini tahlil qilamiz. **Bull**₁ omonimi asosida 12 ta frazeologik birlik hosil bo'lgan, ulardan 2 tasi nominativ frazeologik birlik hisoblanadi. Masalan, *like a bull at a five-barred gate* – qattiq jazavaga tushgan holda, *g'azab otiga mingan holda* – ravishli ibora; *an Irish bull* – g'irt bema'ni, tuturuqsiz ish (*gap, xatti-harakat*) va shu kabilar – substantiv ibora; 3 tasi nominativ – kommunikativ frazeologizm. Masalan, *bellow like a bull* – chinqirib, baqirib yig'lamoq, *uvvos tortmoq*; *shoot the bull* – amerika jargonida ishlatiluvchi ibora bo'lib, “lof urmoq”, “safsata sotmoq”, “aljiramoq”, “yolg'on gapirmoq”, “quloqqa lag'mon osmoq” ma'nolarida ishlatiladi; *trust smb. as far as one can Fling a bull by the tail* – “hech kimga ishonmaslik” ma'nosini anglatadi; qolgan 3 tasi kommunikativ frazeologik birliklar bo'lib, ular asosan maqol va matallarga oiddir. Masalan, *(Like) bull in a china shop* – oshga tushgan pashshadek/ xira pashsha; *bull of Bashan* – ovozi jarangdor sog'lom odam, *qo'ng'iroq ovoz sohibi*. Mazkur ibora kelib chiqishiga ko'ra “Bibliya” bilan bog'liq bo'lib, “ierixon trubasi”, *juda qattiq ovoz, karnay* (“Qur'oni karim”da “sur”) ma'nosida ham ishlatiladi. Demak, **rock**₂, **bull**₂, **bull**₃, va **school**₂ omonimlari frazeologik samaradorlik jihatidan past. Ularni biz nol samaradorlik darajasidagi omonimlar sirasiga kiritamiz.

Frazeologik samaradorligi nol bo'lgan, ya'ni o'zidan bironta ham frazeologik birlik yasamagan omonimik qatorlar ko'rsatgichi 20ga teng ekanligi tahlil natijalarida aniq bo'ldi, lekin bu raqam boshqa omonimlarning frazeologik samaradorligiga soya solmaydi. Masalan, *diet, shoal, cot, wattle* va *hokazo*.

Tadqiqotimiz davomida barcha omonimik qatorlar, ularning kelib chiqishidan qat'iy nazar, frazeologik birliklarni yasashda juda ham faol ekanligi ma'lum bo'ldi, ammo shuni ta'kidlab o'tishni joiz topdikki, biz frazeologik birliklarni tahlil etishda faqat ot so'z turkumiga oid bo'lgan va tarjimada ularning berilish tartibiga asosan tahlilga tortdik.

Masalan, “OE/ON” etimologik guruhiga oid **down** omonimik qatorini oladigan bo'lsak, unda 5 ta frazeologik birlik komponenti bo'lib, ularning shakllanishiga asos bo'lgan. Ammo, yasalgan frazeologik birliklar ot so'z turkumidan yasalgan **down**₁ yoki **down**₂ omonimlariga emas, balki sifat so'z turkumidan yasalgan **down**₃ omonimiga taalluqlidir. Masalan, *down and out* – holdan toygan, *tinka madori qurigan, surobi tortilgan*; *sport “boksdagi nokaut”* ma'nosiga bog'liq, “tamom bo'lgan, halokat yoqasida turgan, cho'kib

qolgan, harob bo'lgan odamga"; *"down with!"* – *"Yo'qol! Yo'qolsin! Bitsin!"* kabi matallarga to'g'ri keladi.

Demak, yuqori samaradorlikka ega bo'lgan omonimik qatorlar tarkibiga 36 tadan 24 tagacha frazeologik birlik yasagan omonimlarni, o'rta samaradorlikka, ya'ni 23 tadan 12 tagacha frazeologik birlik ga ega bo'lgan omonimlarni va quyi frazeologik samaradorlikka ega bo'lgan omonimlar qatoriga esa 11 tadan 1 tagacha frazeologik birlik lar yasagan omonimlarni kiritganmiz. Umuman frazeologik birlik yasamagan omonimlarni va omonimik qatorlarni biz nol samaradorlikka ega bo'lgan omonimlar qatoriga joylashtirdik.

Frazeologik omonimlar qanday turdagi (otli, sifatli, maqolli va h.k.) frazeologik birlik larni hosil qilish uchun komponent bo'lganligi ham samaradorlik mezonini bo'yicha aniqlangan. Bu o'rinda alohida ta'kidlash zarurki, ingliz tilidan tarjima qilinayotgan asarlar omonimlarning frazeologizatsiya jarayonidagi ishtiroki turli xil darajada uchraydi. Buning o'ziga xos ichki va tashqi sabablari mavjud.

Demak, tahlil natijalariga ko'ra "OE/OF/CELT" etimologik guruhiga tegishli **ball**₁ omonimi boshqa etimologik qatorlarga qaraganda frazeologik samaradorligi yuqori.

Frazeologik birliklarning hosil bo'lishi, ularning tarjima jarayonida ishtirok etishi, asosan, har bir tilning ichki imkoniyatlari asosida faol yuz beradi. Bu jihatdan olib qaraganda, tabiiyki, omonimlar frazeologizmlar uchun komponent bo'lishi tashqi omil bo'lib hisoblanadi va u frazeologizmlar hosil qilinishida faol rol o'ynamaydi. Lekin shuni ham e'tiborga olish lozimki, omonimlar qabul qiluvchi tilga o'zlashgandan so'ng, o'sha tilning lug'at tarkibiga nihoyat darajada assimilyatsiyalashib (singib) ketgan bo'lsa, u holda ular frazeologizatsiya jarayonida faol ishtirok etishi mumkin. Bu esa tilning ichki taraqqiyot mexanizmlari bilan shartlangandir. Demak, ingliz tilidagi omonimlarning 70% qismi ingliz tili lug'at tarkibiga assimilyatsiyalashib ketgan, deb mulohaza yuritish mumkin.

O'zbek tilida tarjima jarayonida omonimlar turli xil iboralar, tasviriy ifodalar, maqol va matallar, hikmatli so'zlarning tarjima qilinishida muhim komponent bo'lib xizmat qiladi. Ularning frazeologik birliklar shakllanishida qay darajada ishtirok etishi va qancha barqaror birliklarning hosil bo'lganiga qarab frazeologik samaradorlikni aniqladik.

Aynan shu jarayonni o'zbek tilining tarjimalarida va matnlarda berilish xususiyatlarini omonimlarda ko'rib chiqsak. Bunda frazeologik samaradorligi yuqori bo'lgan, ya'ni 11 ta frazeologik birlik yasagan, "fors-tojik\rus"

etimologik guruhining soya omonimik qatorining “ko’lanka” ma’nosini anglatuvchi **soya**₁ omonimi asosida 3 ta maqol, 8 ta ibora hosil bo’lgan. Ular quyidagilar:

- **maqollar:** *Sada soya berar, tol xoda berar; Egrining soyasi ham egri; Qo’rqqoq ot soyasidan qo’rqar.*

- **iboralar:** *Soya qaytdi – kun yarmidan og’di; Soya solmoq (yoki tashlamoq) – g’ashlik solmoq, xira qilmoq; Soyasi yupqa – nozik, gap ko’tara olmaydigan; Oftobni soyaga yetkazmay – bir zum ham kechiktirmay, darhol; Soyasiga ko’rpacha solmoq (yoki soyasiga salom bermoq) – laganbardorlik, xushomadgo’ylik qilmoq; Soyada qoldirmoq – o’z ustunligi bilan kimnidir orqada qoldirmoq; Soyada qolmoq – panada qolmoq, ko’zga ko’rinmay, chetda qolib ketmoq; O’z soyasidan qo’rqmoq – juda ham qo’rqqoq bo’lmoq.*

Yuqori samaradorlik, ya’ni 10 ta frazeologik birlikga ega, etimologik jihatdan “fors-tojik\noma’lum\rus” guruhidagi sir omonimik qatoridagi **sir**₁, **sir**₂, **sir**₃ omonimlaridan faqat **sir**₂ (arab tilidan o’zlashgan so’z) o’zbek tilida ko’plab iboralar va maqollarning yuzaga kelishida muhim komponent vazifasini o’tagan. Ularga quyidagilarni kiritish mumkin:

- **iboralar:** *sir boy bermoq, siri fosh bo’lmoq, sirni oshkora qilmoq, sir saqlamoq, sir bermaslik.*

- **maqollar:** *siring – sening asiring, sodda siri – tilida, pismiqlar saqlar dilida, o’z do’stim deb sir aytma, do’stingning ham do’sti bor.*

Frazeologik samaradorligi o’rta darajada bo’lgan, ya’ni 6 tadan 4 tagacha frazeologik birliklar yasagan omonimlar sirasiga chor omonimik qatorining chor₁omonimini kiritsak bo’ladi. Aslida “**chahor**” bo’lgan, o’zbek tilida og’zaki talaffuzga moslashgan **chor**₁ so’zi ham ko’p iboralar, matallarning yuzaga kelishiga asos bo’lgan. Lekin mazkur ifodalar O’zbekistondagi qadimdan mavjud bo’lgan fors-tojik va o’zbek tilining yonma-yon qo’llanilishi, ya’ni bilingvizm sharoitida shakllangan. Masalan, *chor aylanmoq – chir aylanmoq, gir aylanmoq, chor ishkal – to’rt muhim a’zo – qo’l, oyoq, ko’z, quloqqa nisbatan ishlatiladi; chor ishkali but – to’rt muchasi sog’lom.* Bu ifoda ko’chma ma’noda “*hamma ish joyida*”, “*xotirjam*” ma’nolarida ishlatiladi. Yana bir misol: *chor atrofing qibla! – to’rt tomoning qibla – xohlagan tomoningga ketaver ma’nosida, ulfati chor, anda maza bor (matal)* kabi ma’nolarda ishlatiladi. **Chor**₂ va **chor**₃ omonimlarida esa frazeologik birliklar yasash holati kuzatilmaydi. Demak, **chor**₁ omonimi frazeologik samaradorlik jihatidan **chor**₂ va **chor**₃ omonimlariga qaraganda yuqori.

Samaradorlik jihatdan quyi darajaga ega bo’lgan, ya’ni 3 tadan 1 tagacha frazeologik birliklar yasagan omonimlar sirasiga “arab\nfors-tojik” etimologik

guruhidagi **bahr** omonimik qatorining **bahr₁** va **bahr₃** omonimlarini kiritish mumkin. Masalan, **bahr₁** va **bahr₃** asosida 1 tadan ibora hosil bo'lgan: *bahri dili ochildi* – “*ko'ngli ochildi*”, “*ruhi yengil tortdi*” ma'nosida; “*bahridan o'tmoq – foydasidan kechmoq*”, “*voz kechmoq*” ma'nosida.

Xuddi shunday frazeologik samaradorlik “arab\noma'lum\turk” etimologik guruhiga tegishli zil omonimik qatorining zil₁ omonimida va kelib chiqishi “arab\fors-tojik” guruhiga oid **palak** omonimik qatorining **palak₁** omonimida kuzatiladi. Masalan, **Zil₁** asosida ham, **palak₁** omonimida ham ikkitadan barqaror birlik yuz bergan:

1) **ibora:** (ichdan) *zil ketmoq* – “*xijolat tortmoq*”, “*xavotirga tushmoq*”, “*qo'rqmoq*”, “*rashkiga yoki alamiga chiday olmay ich-ichidan kuymoq*” ma'nolarida ishlatiladi. Demak, sanalgan ma'nolardan kelib chiqib aytish mumkinki, “*zil ketmoq*” iborasi omonimik xususiyatga ega bo'lib, 3 xil frazeologik ma'noni ifodalaydi. Bu omonimlar frazeologik omonimiyaga yorqin misol bo'la oladi.

2) **maqol:** *hazil, hazilning tagi zil*.

Palak₁ asosida o'zbek tilida ikkita frazeologik birlik yasalgan: a) *palagi toza* – avlod-ajdodi, urug'-aymog'i, kelib chiqishi yaxshi, ulug' insonlarga borib taqaladigan odamga nisbatan ishlatiladi; b) *tup qo'yib palak otmoq* – mustahkam o'rnashib, bola-chaqali bo'lib ketmoq ma'nosida ishlatiladi. **Zil₂**, **zil₁** va **palak₂** omonimlarida frazeologik samaradorlik kuzatilmaydi.

“Fors-tojik\rus” etimologik guruhiga oid banda omonimik qatorining **banda₁** omonimi ham samaradorligi quyi darajadagi omonimlar sirasiga kiritiladi. Masalan, **banda₁** (*odam*) 3 ta frazeologik qator hosil qilishda komponent sifatida ishtirok etgan. 1) *Bandaning boshi – Allohning toshi* (maqol). 2) *Borida – chora-chora, yo'g'ida – banda bechora* (maqol). 3) *xom sut emgan banda* – ojiz banda ma'nolarida ishlatiladi. **Banda₂** omonimida hech qanday frazeologik birlik yasalmaganligi uchun frazeologik samaradorlik darajasi nol bo'lgan omonimlar sirasiga kiritildi.

“Arab\rus” etimologik guruhidagi alif omonimik qatorining **alif₁** omonimini samaradorligida ham yuqoridagi misollar kabi frazeologik samaradorlik o'rta darajada ekanligi kuzatildi va 3 tadan 1 tagacha ibora yasagan omonimlar sirasiga kiritildi. Masalan, **alif₁** asosida 2 ta “*alifni ham kaltak deyolmaydi*”, “*ichini (qornini) yorsang, alif chiqmaydi*” iboralari yuzaga kelgan. Mazkur iboralar sinonim iboralar bo'lib, “*xat-savodi, ma'lumoti yo'q*”, “*hech narsani bilmaydi*” ma'nolarida ishlatiladi. **Alif₂** omonimida esa bu holat kuzatilmaydi. Demak, frazeologik samaradorlik jihatidan **alif₁** ga qaraganda past.

Tahlil natijalarida, o‘zbek tili tarjimalarida omonimlar ingliz tilidagi omonimlarga qaraganda frazeologik samaradorligi nisbatan past.

Frazeologik samaradorligi quyi bo‘lgan omonimlardan yana biri etimologik jihatdan “arab\rus” guruhiga oid bas omonimik qatorining **bas₁** omonimi **bas₁** undovli frazeologik birlik sifatida nutqimizda ishlatiladi. Masalan, - *Bas!* – *dedi Otabek Hasanali hikoyadan to‘xtadi*. U “bo‘ldi”, “etar”, “qo‘y” kabi ma’nolarda ishlatiladi.

Chek₁ va **chek₂** omonimlari “fors-tojik\noma’lum\ ingliz” etimologik guruhiga oid bo‘lib, **sir₂** omonimi kabi, ayrim va ibora maqollarning yuzaga kelishiga asos bo‘lgan bo‘lib, frazeologik samaradorligi quyi darajadagi qatorlar sirasiga kiradi: a) *chek tashlamoq* – qur’a tashlamoq, qur’a tashlab baxtini sinamoq ma’nosida ishlatiluvchi turg‘un birikma; b) *donolikning cheki yo‘q* (maqol); v) *chekingga tushsa, chekchayma* (maqol).

Arab tilidan o‘zlashgan “luqma”, “hazil”, “kinoya” ma’nolarida ishlatiluvchi, etimologik jihatdan “arab\rus” guruhiga oid **shama₂** asosida ular bilan bog‘liq harakat-holatni ifodalovchi ko‘p ma’noli “shama qilmoq” iborasi hosil bo‘lgan. **Shama₁** omonimida esa hech qanday frazeologik birliklar yasalmagan va shu sababli frazeologik samaradorligi nol bo‘lgan omonimlar qatoriga kiritdik. Demak, **chek₃**, **shama₁** omonimlari **chek₁**, **chek₂** va **shama₂** omonimlariga qaraganda frazeologik samaradorligi past.

O‘zbek tilidagi omonimlarning aksariyati umuman frazeologik samaradorlikka ega emas. Masalan, bu qatorlar sirasiga “lotin\frantsuz” etimologik guruhiga oid **ferma** omonimik qatori, kelib chiqishi “lotin\nemis” guruhiga tegishli **fokus** omonimik qatori va hokazo qatorlar kiradi.

Diagramma №2
frazeologik birlik yasashda o‘zbek tilida omonimik so‘zlar samaradorligi



Demak, o‘zbek tili tarjima jarayonida omonimlardan yasalgan frazeologik birliklardan foydalanish, ularni matnlarda qo‘llanayotgan

omonimik soʻzlarning aksariyati feʼlli birliklar hisoblanadi. Yuqoridagi statistik tahlillardan va tavsiflardan koʻrinib turibdiki, ingliz va oʻzbek tillarida omonimlarning frazeologik samaradorligi ham boshqa mezonlardagi kabi oʻziga xos jihatlarga egadir. Umumiy asosda ingliz tilining frazeologik samaradorligi oʻzbek tiliga nisbatan yuqori koʻrsatkich kasb etishi isbotlandi.

Xulosa

Tahlillar davomida ingliz tilidagi omonimik soʻzlarning tarjimada qoʻllanilishi empirik baza tarafidan, soʻz tanlanishi, ularning berilishi, zamonaviyligi, oʻquvchiga tushunarligi tomonidan oʻzbek tilidagi omonimlarning tarjimada qoʻllanilishiga qaraganda nisbatan faolligi aniqlandi. Bunday muammolarning mavjudligi zamonaviy tarjimon oldida turgan dolzarb muammolardan biridir. Aynan omonimlarning turli tarjimalardagi barcha parametrlardagi maʼnolarining toʻliq berilishi ularning miqyosini qay darajadiligini koʻrsatadi.

Omonimlarning lingvostilistik va kommunikativ imkoniyatlari naqadar yuksak ekanligiga yana bir bor amin boʻldik. Chunki tilda omonimlar boʻlmasa, tilning rang-barang nozikliklari kommunikatsiya jarayonida, tarjima sanʼatidagi soʻz oʻyinlarining jozibadorligida oʻz aksini topmaydi. Omonimlar ingliz va oʻzbek tillarida til bogʻliqliklari, toʻlqin nazariyasi, divergentsiya va konvergentsiya kabi qonuniyatlarning amalda isbotini koʻrsatuvchi lingvistik omillar dalil sifatida tadqiq etilishi dolzarb masalalardan biri ekanligini taʼkidlaymiz. Ular turli lisoniy va nolisoniy omillar taʼsirida til tizimida barqaror va universal kategoriya sifatida mavjud, tilni yangi leksik birliklar bilan boyitishda faol qoʻllanaveradi.

Omonimlar turli lisoniy va nolisoniy omillar taʼsirida til tizimida barqaror va universal kategoriya sifatida yashaydi, tilni yangi leksik birliklar bilan boyitishda faol ishtirok etaveradi. Omonimlarning yuzaga kelishi til taraqqiyotining qonuniyatlariga va mexanizmlariga toʻla mos keladi. Ular ichki va tashqi omillarga bogʻliq holda yuzaga keladi, ular til sistemasi uchun fakultativ holat emas, balki tilning leksik va grammatik sistemasini toʻldiruvchi omil sifatida baholanishi metodologik jihatdan asosli boʻladi.

Ingliz tili tarjima jarayonida qoʻllanilishi, ularning soʻz yasash samaradorligida esa affiksatsiya usuliga qaraganda kompozitsiya usuli yetakchilik qilishi isbotlandi. Soʻz-klaster tahlili natijalariga koʻra, yasalgan soʻzlarning aksariyat qismi ot soʻz turkumiga tegishli ekanligi aniqlandi. Oʻzbek tilida tarjima jarayonida esa omonimlarning qoʻllanilishi, soʻz yasash samaradorligida esa affiksatsiya va kompozitsiya usulining deyarli teng

ahamiyat kasb etishi bilan belgilanadi. Izchil leksikografik tamoyillarga asoslangan holda ingliz va o'zbek tilida omonimlar elektron lug'atini alohida alohida etimologiyasiga, nutqdagi chastotasiga va dissertatsiyada keltirilgan lug'at tuzish printsiplarini e'tiborga olgan holda yaratilishi lozim. Chunki aynan shunday lug'atlar tarjimon mutaxassislar uchun, kitobxon va tadqiqotchilar uchun ham muhtojlik sezilayotgani aniqlandi.

Adabiyotlar

- Abduraxmonov, F. Shukurov, SH. Mahmudov, Q. 2008. O'zbek tilining tarixiy grammatikasi. Toshkent.
- Алиев, А., Содиқов, Қ. 1994. Ўзбек адабий тили тарихидан. Тошкент.
- Арнольд, И.В. 1966. Лексикология современного английского языка. Москва. Высшая школа.
- Болтянская, Р. И. 1983. Разграничение полисемии и омонимии в системе английского глагола. Киев. Дисс...кан. филол. наук.
- Булаховский, Л.А. 1928. Из жизни омонимов// Русская речь. Москва. Вып. 3.
- Виноградов, В.В. 1977. Лексикология и лексикография. Москва. Избранные труды.
- Джурбабаева, М.А. 1975. Аффиксальная омонимия в узбекском языке. Тошкент. Автореф. дисс... канд. филол. наук.
- Исмаилов, Г.М. 2012. Омонимия Транстерминов (на материале узбекского языка) Тошкент. Институт языка и литературы Академии наук Республики Узбекистан.
- Камолов, Ф. 1957. Лексикология. Тошкент. Ҳозирги замон ўзбек тили.
- Миртожиев, М. 1963. Ўзбек тилида омонимларнинг пайдо бўлиши. Тошкент. Дисс... канд. филол. наук.
- Раҳматуллаев, Ш. 1984. Тошкент. Омонимларнинг изоҳли луғати. Ўқитувчи.
- Ўзбек тилининг изоҳли луғати. В 5 т. Т. I - V. 2006. Тошкент. Ўзбекистон.
- Ҳожиёв, А. 1985. Лингвистик терминларнинг изоҳли луғати. Тошкент. Ўқитувчи.
- Muminov, A.M. 2008. Lexicology Of The English Language. Tashkent. Мехридарё.
- The Oxford dictionary of the English language. В. 13 т. 1967. Oxford.

Translation Interpretation of English-Uzbek Phraseological homonyms

Ra'nokhon Khudjaeva¹

Abstract

Homonymic words have taken their place in the art of translation, they are the "false friends" of the translator, and today the method of translating homonymic words in texts, the study of their history is not only interested of linguists, but also in translation studies is one of the pending issues in the field. Adequacy using of homonymic words in the translation process makes translation even more attractive. The article describes in detail the strategies for achieving alternative translation of homonymic words in English and Uzbek, and their wrong using can lead to "breakage" of the translation.

Keywords: *homonymous words, semantic efficiency, translation process, etymology, alternative translation, factors, jargon, slang, barbarism, vulgarism.*

References

- Abduraxmonov, G'. Shukurov, SH. Mahmudov, Q. 2008. O'zbek tilining tarixiy grammatikasi. Toshkent:
- Aliev, A., Sodiqov, Q. 1994. O'zbek adabiy tili tarixidan. Toshkent:
- Arnold, I.V. 1966. Leksikologiya sovremennogo angliyskogo yazka. Moskva: Vsshaya shkola.
- Boltyanskaya, R. I. 1983. Razgranichenie polisemii i omonimii v sisteme angliyskogo glagola. Kiev. diss...kan. filol. nauk.
- Vinogradov, V.V. 1977. Leksikologiya i leksikografiya. Moskva: Izbranne trud.
- Djurabaeva, M.A. 1975. Affiksalnaya omonimiya v uzbekskom yazke. Toshkent. avtoref. diss... kand. filol. nauk.
- Ismailov, G.M. 2012. Omonimiya transterminov (na materiale uzbekskogo yazka) Toshkent. Institut yazka i literatur Akademii nauk Respubliki Uzbekistan.
- Mirtojiev, M. 1963. O'zbek tilida omonimlarning paydo bo'lishi. Toshkent: Diss... kand. filol. nauk.
- Rahmatullaev, Sh. 1984. Toshkent: Omonimlarning izohli lug'ati. O'qituvchi.

¹Ranakhon M. Khudjayeva - Doctor of Philosophy in Philology (PhD), Associate Professor. Alisher Navoi Tashkent State University of the Uzbek Language and Literature.

E-mail: xudjavevaranoxon@navoiy-uni.uz

ORCID ID: 0000-0001-6790-4344

For citation: Khudjayeva, R.M. 2022. "Translation Interpretation of English-Uzbek Phraseological homonyms" *Uzbekistan: language and culture*, 3 (2): 88-107.

O'zbek tilining izohli lug'ati. V 5 t. T.: I - V. 2006. Toshkent: O'zbekiston.
Hojiev, A. 1985. Lingvistik terminlarning izohli lug'ati. Toshkent: O'qituvchi.
Muminov, A.M. 2008. Lexicology Of The English Language. Tashkent:
Mexridaryo.
The Oxford dictionary of the English language. V. 13 t. 1967. Oxford.